




**NAVOIY VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2023- YIL YANVAR-AVGUST  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




## Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 64 481,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,2 % ni tashkil etdi.



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 644,2 mlrd so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 11,9 % ga to‘g‘ri keldi.




## Ishlab chiqaradigan sanoat

**Ishlab chiqaradigan sanoat** – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan – bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishslashni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52 577,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,5 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,7 % (10,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,1 % (83,1 %) va quyi texnologiyalisi – 7,1 % (6,2 %)ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

2023- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5 157,5 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 128,7 % ga o'sgan), 1 691,0 tonna xlor (164,3 %), 89,3 ming dona trikotaj sport va chang'ichilar kostyumlari (169,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	44,6	57,3	12,7
Trikotaj sport va chang'ichilar kostyumlari, ming dona.	52,6	89,3	36,7
Xlor, tonna.	1 029,0	1 691,0	662,0
Yogurt , tonna.	12,1	17,7	5,6
Metil spirti (metanol), tonna.	16 094,8	15 818,2	-276,6
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming t.	32,4	32,7	0,3
Ammoniy sulfat, ming t azot.	2,2	2,5	0,3
Vodorod xlorid (xlorid kislota), ming t.	31,0	34,0	3,0
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming t.	41,0	37,5	-3,5
Portlandsement, ming tonnna.	2 034,1	1 979,3	-54,8
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	4 006,3	5 157,5	1 151,2

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Argon ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-avgust oylarida)

**Argon** – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlataladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.


Viloyatimizda 2023- yil yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 118,8 ming m<sup>3</sup> argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,0 % ni tashkil etdi.



## Vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-avgust oylarida)

**Vodorod xlorid** – xlorning eng muhim birikmalaridan biri bo'lib o'tkir hidli rangsiz gaz. U bilan nafas olingenida nafas yo'llarini yallig'lantiradi va bo'g'adi.

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 34,0 ming tonna vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil etgan.




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Azot ishlab chiqarish (2023-yilning yanvar-avgust oylarida)

**Azot** – rangsiz, hidsiz gaz bo'lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida jami 70,7 ming m<sup>3</sup> azot ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ni tashkil etdi.



## Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish (2023-yilning yanvar-avgust oylarida)

**Plastmassa quvurlari** – asosan, suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo'llanadi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 5 157,5 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,7 % ga ko'paygan.



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 75,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 39 581,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish** – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 72,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 366,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 599,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 98,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 915,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 14,2 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 129,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 105,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 837,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 217,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,5 % ini) tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 93,4 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 98,6 % ni hamda elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 296,2 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	7 649,8	7 141,6	-508,2
Issiqlik energiyasi, ming. gkal	3 107,1	3 062,3	-44,8
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	472,6	1 399,8	927,2

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishslash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,8 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to'g'ri keldi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 3,2 (m) ni tashkil etdi hamda suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 6,5 % ga oshdi.


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	42 894,0	32 412,6	- 10 481,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	91 472,5	97 428,3	5 955,8
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	10 735,8	34 171,1	23 435,3

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2 480,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,9 %, uning jami sanoatdagi ulushi 3,8 % ga to'g'ri keldi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 53,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 47,0 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 41,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 59,0 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 1 314,5 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,7 % ga oshdi.

Shu bilan birga, viloyatda 1 166,0 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,9 % ga oshdi.

### Nooziq-ovqat mahsulotlar



## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

**Iste'mol tovarlari** – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'limgan boshqa maqsadlarda ishlataladigan sanoat mahsulotlari.

2 595,4 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-avgust

2 908,4 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-avgust

2 480,5 mlrd. so'm

2023- yil yanvar-avgust

2021- yil

105,2%


2022- yil

109,4%


2023- yil

104,9 %


Nooziq-ovqat  
mahsulotlar ishlab chiqarish  
hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Oziq-ovqat  
mahsulotlar ishlab chiqarish  
hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Jami iste'mol  
mollari ishlab  
chiqarish hajmida  
nooziq-ovqat  
mahsulotlarning  
ulushi



Jami iste'mol  
mollari ishlab  
chiqarish hajmida  
oziq-ovqat  
mahsulotlarning  
ulushi

